



XALQ DEPUTATLARI KASBI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr

VII-11-108-4-61-K/25

Kasbi tumani

Kasbi tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrda O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 29-dekabrda VII-20-218-4-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 29-dekabrda 01-20-237/10-01-01-38-/396-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrda VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Kasbi tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **120 mlrd. 818 mln. 929 ming** so‘m va xarajatlari **120 mlrd. 818 mln. 929 ming** so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining 40 foizi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

4. Quyidagilar:

Kasbi tumanining mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilovaga**;

Kasbi tumaning mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga**;

2026-yil uchun mahalliy budjetga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **3-ilovaga**;

Kasbi tumani mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi **4-ilovaga**;

Kasbi tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining 2026-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **877 mln 688 ming so'm** etib hamda tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **5-ilovaga** muvofiq belgilansin.

5. Kasbi tumanida 2026-yil uchun, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yerga belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilovaga**;

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **7-ilovaga**;

2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **8-ilovaga**;

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Kasbi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i J.Arslonov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining yuirinchi o'rinbosari (G'.Salomov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i (J.Cho'liyev) tuman hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

7. Tuman hokimligi hamda barcha mas'ul tashkilotlar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

8. Tuman soliq inspeksiyasi (J.Cho'liyev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini

ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Majburiy ijro byurosi Kasbi tuman bo'limi (R.Abdiyev), tuman soliq inspeksiyasi (J.Cho'liyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

10. Kasbi tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM (F.Raxmatov) va tuman soliq inspeksiyasi (J.Cho'liyev) mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalar tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (J.Cho'liyev), tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (I.Qurbonov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Arslonov) bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetga undirish choralari ko'rsinlar.

12. Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimligi hamda ma'sul tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida

tushishi hamda budjet mablagʻlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat oʻrnatilsin.

13. Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Gʻ.Salomov) budjetdan ajratilgan mablagʻlarni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida hisobot berib borish vazifalari yuklatilsin.

14. Tuman hokimligi Axborot xizmati (L.Temirov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (J.Choʻliyev), Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Gʻ.Salomov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi “Sadoqat” gazetasida qonunda belgilangan ayrim soliqlar va toʻlov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa maʼlumotlarni eʼlon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

15. Mazkur qaror tegishli tartibda “Sadoqat” gazetasida va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

16. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrda “Kasbi tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-3-020-4-61-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

17. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi raisi B.Sattorov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻ J.Arslonov zimmasiga yuklatilsin.

18. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kiritilsin.

Kengash raisi



**MEYLIYEV
TOʻXTAMUROD
ABDIXALIKOVICH**

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Kasbi tumani mahalliy budjeti daromadlarining prognoz
ko'rsatkichlari**

№	Daromad turlari	Kasbi tumani
	JAMI	120 885 704
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	1 980 000
2	Foyda solig'i	3 000 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 696 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	40 747 236
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 500 000
	Aksiz solig'i jami	0
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	0
	<i>pivo</i>	0
	benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 720 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	10 810 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	8 834 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	21 731 468
11	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10 032 000
	shundan: Qishloq bo'jaligi korxonalari bo'yicha suv solig'i	14 546 000
	shundan: Boshqa korxonalar	1 304 000
	Qishloq xo'jaligi korxonalari suv solig'ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-5 818 000
13	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	3 760 000
15	Mahalliy yig'imlar	1 750 000
16	Jarimalar	3 950 000

17	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	259 000
----	--	---------

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Kasbi tumaning mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy
cheklangan miqdorlari**

№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Kasbi tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	120 885 704
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	41 484 921
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 769 800
2	Madaniyat bo'limi	8 050 386
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	3 475 910
4	Sport bo'limi	5 227 315
5	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 600 287
6	Qishloq xo'jaligi bo'limi	3 478 117
7	Irrigatsiya bo'limi	2 908 240
8	Iqtisodiyot va moliya bo'limlarini saqlash xarajatlari	2 482 820
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo'limi Ijtimoiy ko'nikma markazlari xarajatlari	129 495
10	Hokimiyat	34 396 559
	shundan:	0
	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	0
	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	0
	Madaniyat bo'limi	0
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi	0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi	0
	Qishloq xo'jaligi bo'limi	0
	Oila va xotin-qizlar bo'limi	0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	18 223 593
	"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari	2 134 747
	Zahira jamg'armasi	1 686 553
11	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	708 911
	shundan:	
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	60 288
	Axborot-kutubxona markazlari	648 623
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 942 743
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun mahalliy budjetga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo'shilgan qiymat solig'i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig'i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Kasbi tumani	0%	30%	100%	70%	0%	60%	100%	40%	100%	100%	0%	0%	0%	30%	100%	70%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Kasbi tumani	0%	23%	100%	77%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Kasbi tumani	0%	0%	100%	100%	100%	0%	50%	50%	50%	50%	50%	50%

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**Kasbi tumani mahalliy budjetining
2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi**

mln. soʻmda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Kasbi tumani	120 885.7	120 885.7

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**2026-yilda Kasbi tumani mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan
budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming so'mda)
1	Kasbi tumani	877 688,0

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Kasbi tumanida 2026-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik
shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda 1,0 (bir) gektar yerga belgilangan bazaviy soliq
stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

T/R	Nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda) 1 ga uchun
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
1	G'alaba MFY	0,7	28 789 600
2	Pandiron MFY	0,7	28 789 600
3	Jizza MFY	0,7	28 789 600
4	Xo'jaqarliq MFY	0,7	28 789 600
5	Oqtepa MFY	0,7	28 789 600
6	M.Ulug'bek MFY	0,7	28 789 600
7	Obod Nekuz MFY	0,7	28 789 600
8	Qamashi MFY	1,0	41 128 000
9	Istiqlol MFY	0,7	28 789 600
10	Soxibkor MFY	0,7	28 789 600
11	Xo'ja-xayron MFY	0,7	28 789 600
12	Yangi Maymanov MFY	1,0	41 128 000
13	Qatag'an MFY	1,0	41 128 000
14	Maymanov MFY	1,0	41 128 000
15	Denov MFY	0,7	28 789 600
16	Kasbi MFY	0,7	28 789 600
17	Yuksalish MFY	0,7	28 789 600
18	Talishbe MFY	0,7	28 789 600
19	Fazli MFY	0,7	28 789 600
20	Xo'jaki MFY	0,7	28 789 600
21	Shakarjo'y MFY	0,7	28 789 600
22	Obod yurt MFY	0,7	28 789 600
23	Qoratepa MFY	0,7	28 789 600
24	Komilon MFY	0,7	28 789 600
25	Mustaqilobod MFY	0,7	28 789 600
26	Nurobod MFY	1,0	41 128 000
27	Paxtakor MFY	0,7	28 789 600
28	Talliyulgun MFY	0,7	28 789 600
29	Oqjangal MFY	0,7	28 789 600
30	Qoraqo'ng'irov MFY	0,7	28 789 600
31	Qo'ng'irov MFY	0,7	28 789 600
32	Mesit MFY	0,7	28 789 600
33	Cho'lquvar MFY	0,7	28 789 600
34	Nazartepa MFY	0,7	28 789 600
35	Xo'ja-Kasbi MFY	1,0	41 128 000
36	Oqqamish MFY	1,0	41 128 000
37	Mug'lon MFY	1,0	41 128 000

38	Do'stlik MFY	1,0	41 128 000
----	--------------	-----	------------

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Kasbi tumanida 2026-yilda Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
1	G'alaba MFY	1,0	316,68
2	Pandiron MFY	1,0	316,68
3	Jizza MFY	1,0	316,68
4	Xo'jaqarliq MFY	1,0	316,68
5	Oqtepa MFY	1,0	316,68
6	M.Ulug'bek MFY	1,0	316,68
7	Obod Nekuz MFY	1,0	316,68
8	Qamashi MFY	1,0	316,68
9	Istiqlol MFY	0,7	221,68
10	Sohibkor MFY	0,7	221,68
11	Xo'ja-xayron MFY	0,7	221,68
12	Yangi Maymanoq MFY	1,0	316,68
13	Qatag'an MFY	1,0	316,68
14	Maymanoq MFY	1,0	316,68
15	Denov MFY	0,7	221,68
16	Kasbi MFY	0,7	221,68
17	Yuksalish MFY	0,7	221,68
18	Talishbe MFY	0,7	221,68
19	Fazli MFY	0,7	221,68
20	Xo'jaki MFY	0,7	221,68
21	Shakarjuy MFY	0,7	221,68
22	Obod yurt MFY	0,7	221,68
23	Qoratepa MFY	0,7	221,68
24	Komilon MFY	0,7	221,68
25	Mustaqilobod MFY	0,7	221,68
26	Nurobod MFY	1,0	316,68
27	Paxtakor MFY	0,7	221,68
28	Talliyulg'un MFY	0,7	221,68
29	Oqjangal MFY	0,7	221,68
30	Qoraqo'ng'irod MFY	0,7	221,68
31	Qo'ng'irod MFY	0,7	221,68
32	Mesit MFY	0,7	221,68
33	Cho'lquvar MFY	0,7	221,68
34	Nazartepa MFY	0,7	221,68

35	Xo'ja-Kasbi MFY	1,0	316,68
36	Oqqamish MFY	1,0	316,68
37	Mug'lon MFY	1,0	316,68
38	Do'stlik MFY	1,0	316,68

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
8-ilova

**2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan
qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori**

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar (so'mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin so'm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so'm/m.kub		Marmar so'm/m.kub		Granitlar so'm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so'm/tonna		G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so'm/m.kub		Qum-shag'al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so'm/m.kub	
		Koeffitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi
11	Kasbi tumani	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-11-108-4-61-K/25 -son qaroriga
9-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Tuman va shaharlar nomi	Faoliyat turlari kesimida
-----	-------------------------	---------------------------

		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Kasbi tumani	1.20	1.4	1.2